

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

## ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK NASRIDA "KICHIK" ODAM OBRAZINING BADIY TALQINI

Tursinova Nodira Komiljon qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning Guliston filiali, o'qituvchi.  
e-mail: [nodiratursinova3@gmail.com](mailto:nodiratursinova3@gmail.com) ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9044-091X>

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada istiqlool davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazining badiiy talqini zamonaviy adabiy jarayon kontekstida tadqiq etiladi. Mustaqillik yillarida yuz bergan ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar natijasida badiiy tafakkurda oddiy inson shaxsiga bo'lgan munosabat tubdan yangilangani, uning ruhiy olami, ichki kechinmalari, hayotiy qadriyatlari hamda jamiyat bilan murakkab munosabatlari yangi badiiy-estetik mezonlar asosida ifodalangani tahlil qilinadi. Maqolada "kichik" odam obrazining tipologik xususiyatlari, uning karakterini ochishda psixologik tasvir, badiiy detal, ramziy ifoda va muallif konsepsiyasining o'rni yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** istiqlool davri, o'zbek nasri, "kichik" odam obrazi, badiiy talqin, badiiy obraz, psixologizm, individual tafakkur, poetika, karakter yaratish.

## ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА «МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА» В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Турсинова Нодира Комилжон кизи

Гулистанский филиал Специализированной школы имени Мухаммада аль-Хорезми, преподаватель.

### Аннотация.

В статье исследуется художественная интерпретация образа «маленького человека» в узбекской прозе периода независимости в контексте современного литературного процесса. Анализируется, как в результате социально-духовных изменений, произошедших в годы независимости, существенно обновилось отношение художественного мышления к личности обычного человека, а его духовный мир, внутренние переживания, жизненные ценности и сложные взаимоотношения с обществом получили выражение на основе новых художественно-эстетических критериев. В статье раскрываются типологические особенности образа «маленького человека», а также роль психологического изображения, художественной детали, символического выражения и авторской концепции в раскрытии его характера.

**Ключевые слова:** период независимости, узбекская проза, образ «маленького человека», художественная интерпретация, художественный образ, психологизм, индивидуальное мышление, поэтика, создание характера.

## THE LITERARY INTERPRETATION OF THE "LITTLE MAN" IMAGE IN UZBEK PROSE OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Tursinova Nodira Komiljon qizi

Gulistan Branch of the Muhammad al-Khwarizmi Specialized School, Teacher.

### Abstract.

This article examines the literary interpretation of the "little man" image in Uzbek prose of the independence period within the context of the contemporary literary process. It analyzes how the socio-spiritual transformations that occurred during the years of independence fundamentally reshaped literary attitudes toward the ordinary individual and how the character's inner world, emotional experiences, life values, and complex relationship with society came to be represented through new literary and aesthetic principles. The article explores the typological features of the "little man" image and highlights the role of psychological representation, artistic detail, symbolic expression, and the author's conceptual perspective in revealing the character.

**Keywords:** independence period, Uzbek prose, "little man" image, literary interpretation, literary image, psychologism, individual thinking, poetics, characterization.

**Kirish.** Istiqlool davri o'zbek adabiyoti milliy tafakkurning yangilanishi, inson omilining ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etilishi hamda badiiy-estetik qarashlarning yangi bosqichga ko'tarilishi bilan tavsiflanadi. Mustaqillik yillarida jamiyat hayotida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar badiiy ijod mazmuni hamda shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada adabiyotda inson shaxsini yangicha idrok etish, uning ichki dunyosini chuqur tahlil qilish, ruhiy kechinmalarini haqqoniy tasvirlash va individual taqdirini badiiy tadqiq etishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Avvalgi davr nasrida ko'proq ijtimoiy g'oya va jamoaviy manfaatlar markazda turgan bo'lsa, istiqlool davri nasrida alohida shaxs, uning

ma'naviy izlanishlari, ruhiy ziddiyatlari va hayotiy tanlovlari badiiy tasvirning asosiy obyektiga aylandi.

Jahon adabiyotshunosligida "kichik" odam obrazi XIX asr rus adabiyotida shakllangan muhim estetik kategoriyalardan biri hisoblanadi. A. Pushkin, N. Gogol, F. Dostoyevskiy, A. Chexov singari adiblar ijodida jamiyatning quyi qatlamiga mansub, oddiy turmush kechiruvchi, hayotning turli murakkab sinovlariga duch keluvchi inson obrazi alohida badiiy talqin etilgan [1; 2; 3; 4]. Keyinchalik mazkur obraz jahon adabiyotining turli milliy adabiyotlarida yangi mazmun va shakl kasb etdi. O'zbek nasrida ham oddiy inson hayoti XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng yoritilgan bo'lsa-da, istiqlol davrida ushbu obrazning falsafiy, psixologik va estetik talqini yanada chuqurlashdi. Endilikda "kichik" odam faqat ijtimoiy mavqei bilan emas, balki murakkab ichki olam, individual tafakkur, ma'naviy iztiroblar va shaxsiy mas'uliyat egasi sifatida namoyon bo'la boshladi.

Istiqlol davri o'zbek nasrida yaratilgan asarlarda oddiy insonning kundalik hayoti, jamiyatdagi o'rni, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar, ma'naviy tanazzul va yuksalish jarayonlari badiiy umumlashtirish asosida aks ettiriladi. Ayniqsa, globalashuv, bozor iqtisodiyoti, urbanizatsiya, migratsiya, ma'naviy qadriyatlarning yangicha talqini kabi omillarning inson ruhiyati va xarakteriga sezilarli ta'siri adabiy asarlarda o'z ifodasini topmoqda. Shu jihatdan zamonaviy nasrda "kichik" odam obrazi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarnigina emas, balki insonning ichki olami, ruhiy iztiroblari, yolg'izlik hissi, ma'naviy tanlovi va hayot mazmunini anglashga intilishi orqali yoritilishi bilan xarakterlanadi.

Bugungi adabiyotshunoslikda inson konsepsiyasi, badiiy obraz evolyutsiyasi, psixologizm va individual tafakkur masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar salmoqli o'rin egallayotgan bo'lsa-da, istiqlol davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazining badiiy talqinini kompleks tarzda yoritish zarurati hanuz dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki zamonaviy nasrda oddiy inson obrazi faqat muayyan voqelikning ishtirokchisi emas, balki murakkab ma'naviy olam egasi, davr ruhini ifodalovchi badiiy timsol sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa mazkur obrazning poetik xususiyatlari, badiiy-falsafiy mohiyati hamda estetik funksiyasini ilmiy asosda tahlil qilishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada istiqlol davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazining badiiy talqinini o'rganishda kompleks yondashuv asos qilib olindi. Maqolani yozish jarayonida qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi hamda Isajon Sultonning "Yog'och kavush" hikoyasi tanlab olindi. Ushbu asarlarda "kichik" odam obrazining shakllanishi, qahramonlarning ruhiy holati, ijtimoiy mavqei va badiiy tasvir vositalari o'rganildi. Maqolani yozish davomida obraz yaratish tamoyillari, psixologizm, badiiy detal va ramziy ifodalarning funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek nasrida inson konsepsiyasining rivojlanish jarayoni adabiy-nazariy qarashlar asosida yoritildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Istiqlol davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazining badiiy talqini insonning ijtimoiy mavqeidan ko'ra uning ruhiy olami, ma'naviy izlanishlari va jamiyat bilan munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Maqolani yozish jarayonida Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi hamda Isajon Sultonning "Yog'och kavush" hikoyasi asosiy tahlil obyekti sifatida olindi [5; 6]. Mazkur ikki asar istiqlol davri o'zbek nasrida oddiy inson taqdirini, uning ichki kechinmalarini va jamiyatdagi o'rnini badiiy aks ettirishi bilan e'tiborga loyiqdir.

Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi 1989-yil 6-yanvarda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan bo'lib, o'zbek modern nasrining muhim namunalari biri sifatida baholanadi. Asarda oddiy, jamiyat chetida qolgan inson obrazi orqali inson va muhit o'rtasidagi murakkab munosabatlar ochib beriladi. Hikoyadagi chol obrazi tashqi ko'rinish jihatidan oddiy va e'tibordan chetda qolgan inson sifatida tasvirlansa-da, uning ichki dunyosi, hayotiy tajribasi va ruhiy iztiroblari orqali "kichik" odam tushunchasining an'anaviy chegaralari kengaytiriladi. Asardagi qahramon jamiyat uchun oddiy shaxs bo'lib ko'rinsa-da, uning ichki olamida katta falsafiy savollar, hayot va inson mohiyati haqidagi izlanishlar mujassam.

Mazkur hikoyada "kichik" odam obrazi, avvalo, portret tasviri orqali ochiladi. Yozuvchi qahramonning tashqi belgilarini tasvirlash bilan birga, uning ruhiy holatini ham ifodalaydi. Cholning sukutga cho'mgan holati, atrofdagi voqealarga befarqdek ko'rinishi aslida ichki iztirob va jamiyatdan uzoqlashish holatini bildiradi. Bu jihatdan Nazar Eshonqul an'anaviy ijtimoiy qahramon yaratishdan voz kechib, insonning ichki fojiasini badiiy tadqiq etishga e'tibor qaratadi [7]. Hikoya bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillarda ham asarning asosiy xususiyatlari sifatida ramziy tasvir, portret va psixologik tahlil vositalari ko'rsatilgan.

Isajon Sultonning "Yog'och kavush" hikoyasida esa "kichik" odam obrazi boshqa badiiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Ushbu asarda oddiy inson hayoti, uning turmush tashvishlari va ma'naviy dunyosi markazga chiqariladi. Tadqiqotchilar mazkur hikoyada yozuvchi mahorati, obraz yaratish usullari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun masalalariga e'tibor qaratgan [8]. Asarda qahramonning tashqi imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, uning insoniy qadr-qimmati va ruhiy dunyosi yuksak badiiy mezonlar asosida tasvirlanadi.

Isajon Sulton ijodida oddiy inson obrazi ko'pincha ramziy detallar orqali ochiladi. "Yog'och kavush" nomining o'zi ham muayyan badiiy yuklamaga ega bo'lib, inson hayotining og'ir sinovlari, sabr-toqati va taqdir oldidagi holatini ifodalovchi ramziy vosita sifatida xizmat qiladi. Badiiy detal bu o'rinda oddiy predmet bo'lib qolmay, qahramon hayoti va ruhiyatini ochuvchi poetik vositaga aylanadi. Shu jihatdan asarda "kichik" odam obrazi faqat ijtimoiy holat bilan emas, balki uning ichki bardoshi va ma'naviy kuchi bilan belgilanadi.

Ikki asarni qiyosiy tahlil qilish natijasida "kichik" odam obrazining istiqlol davri nasrida uch asosiy xususiyat orqali namoyon bo'lishi aniqlandi. Birinchidan, bu obraz jamiyatning oddiy vakili sifatida tasvirlanadi. Ikkinchidan, uning ichki dunyosi tashqi voqealardan ko'ra muhimroq badiiy obyektga aylanadi. Uchinchidan, qahramon orqali davrning ma'naviy-axloqiy muammolari ochib beriladi.

Tahlil natijasida shuni ko'rish mumkinki, Nazar Eshonqul qahramonida "kichik" odam obrazi ko'proq falsafiy-psixologik yo'nalishda ifodalangan bo'lsa, Isajon Sulton asarida u ma'naviy-ijtimoiy yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchi

holatda insonning yolg'izligi, jamiyat bilan begonalashuvi va ruhiy iztirobi asosiy o'ringa chiqsa, ikkinchi holatda insonning sabri, hayotiy kurashi va ichki pokligi yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mazkur asarlarda badiiy detal va psixologizm "kichik" odam obrazini yaratishda asosiy vositalardan biri ekanligi kuzatiladi. Qahramonlarning ruhiy holati bevosita voqealar orqali emas, balki sukut, xotira, ramziy predmetlar va ichki kechinmalar yordamida ochiladi. Bu esa istiqloq davri o'zbek nasrining inson ruhiyatiga chuqurroq kirib borayotganini ko'rsatadi.

**Muhokama.** Istiqloq davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazining badiiy talqini masalasi zamonaviy adabiy jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur obrazning mohiyati faqatgina qahramonning ijtimoiy mavqei bilan belgilanmaydi, balki uning ichki dunyosi, ma'naviy izlanishlari, jamiyat bilan munosabatlari va hayotiy pozitsiyasi orqali ochiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, istiqloq davri nasrida oddiy inson obrazi an'anaviy tushunchadagi "e'tibordan chetda qolgan shaxs" sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega bo'lgan, o'z taqdiri va hayot mazmuni haqida fikrlovchi badiiy qahramon sifatida tasvirlanmoqda. Nazar Eshonqul va Isajon Sulton ijodida "kichik" odam obrazining o'ziga xos jihatlari kuzatiladi. Nazar Eshonqul asarlarida bu obraz ko'proq inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat, begonalashuv, yolg'izlik va ruhiy iztirob masalalari orqali ifodalansa, Isajon Sulton ijodida insonning ma'naviy pokligi, sabr-toqati va hayotiy qadriyatlarini asosiy o'ringa chiqadi. Shu jihatdan har ikki ijodkor "kichik" odam obrazini yaratishda turli badiiy usullardan foydalangan bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi inson shaxsining ichki imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, istiqloq davri nasrida qahramon yaratish tamoyillari sezilarli darajada yangilangan. Avvalgi adabiy an'analarda qahramon ko'pincha ijtimoiy faoliyati yoki jamiyatdagi o'rni orqali baholangan bo'lsa, zamonaviy nasrda uning ruhiy kechinmalari, ichki monologi va individual tafakkuri yetakchi mezonga aylangan. Bu jarayon o'zbek nasrining jahon adabiy tajribasi bilan uyg'unlashuvi va inson konsepsiyasining chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Shuningdek, "kichik" odam obrazini yaratishda psixologizm va badiiy detalning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchilar qahramon xarakterini ochishda tashqi voqealardan ko'ra ichki kechinmalar, ramziy belgilar va ruhiy holat tasviriga ko'proq murojaat qiladilar. Natijada oddiy inson obrazi umumlashma badiiy timsol darajasiga ko'tariladi. Demak, istiqloq davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazi milliy adabiyotdagi inson tasvirining yangi bosqichini ifodalaydi. Ushbu obraz orqali yozuvchilar jamiyatdagi muammolarnigina emas, balki insonning o'zligi, ma'naviy dunyosi va hayot oldidagi mas'uliyatini ham badiiy tadqiq etadilar. Bu esa zamonaviy o'zbek nasrining falsafiy-estetik imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, istiqloq davri o'zbek nasrida "kichik" odam obrazi badiiy tafakkurning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Maqola natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur obraz zamonaviy nasrda faqatgina ijtimoiy mavqei past bo'lgan inson timsoli sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega, o'z hayoti, jamiyatdagi o'rni va ma'naviy qadriyatlarini haqida fikrlovchi shaxs sifatida talqin qilinmoqda. Istiqloq davri adabiyotida insonning ichki dunyosiga, uning ruhiy kechinmalariga va individual taqdiriga bo'lgan e'tibor kuchaygani sababli "kichik" odam obrazi yangi badiiy mazmun kasb etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Istiqloq davri o'zbek nasrida yaratilgan "kichik" odam obrazlarini tizimli ravishda o'rganish, ularning badiiy evolyutsiyasini alohida ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.
2. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida inson konsepsiyasi, psixologizm va badiiy obraz masalalariga bag'ishlangan qiyosiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarur.
3. Oliy ta'lim muassasalarida o'zbek nasri bo'yicha dars mashg'ulotlarida istiqloq davri yozuvchilari asarlariga, xususan, oddiy inson obrazining badiiy talqiniga ko'proq e'tibor qaratish lozim.
4. Yangi avlod tadqiqotchilari tomonidan "kichik" odam obrazining zamonaviy o'zbek romanlari, hikoyalari va qissalarida namoyon bo'lish xususiyatlarini kengroq o'rganish tavsiya etiladi.
5. Adabiy jarayonni o'rganishda badiiy asarlarni faqat syujet va voqealar rivoji asosida emas, balki qahramon ruhiyati, muallif pozitsiyasi va poetik vositalar nuqtai nazaridan tahlil qilish zarur.

Izlanish natijalarini hisobga olib, umuman olganda, "kichik" odam obrazi istiqloq davri o'zbek nasrining insonparvarlik mohiyatini ochib beruvchi muhim badiiy hodisa hisoblanadi. Ushbu obraz orqali yozuvchilar oddiy inson hayotining murakkab qirralarini, uning ruhiy izlanishlari va ma'naviy imkoniyatlarini chuqur yoritishga erishganlar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Пушкин А. С. Станционный смотритель // Пушкин А. С. Повести Белкина. – Москва: Художественная литература, 1985. – С. 45–60.
2. Гоголь Н. В. Шинель // Гоголь Н. В. Повести. – Москва: Художественная литература, 1984. – С. 102–135.
3. Достоевский Ф. М. Бедные люди. – Москва: Эксмо, 2010. – 288 с.
4. Чехов А. П. Рассказы. – Москва: Художественная литература, 1986. – 544 с.
5. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam: hikoya // Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 5–18. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-maymun-yetaklagan-odam-hikoya/>
6. Sulton I. Yog'och kavush: hikoya // Sulton I. Asarlar. Hikoyalar. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-yogoch-kavush.html>
7. Qahramonova Sh. Nazar Eshonqul hikoya va qissalarida yolg'izlik motivining badiiy vositalari ("Maymun yetaklagan odam", "Og'riq lazzati", "Muolaja", "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" asarlari misolida) // XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar. – 2026. <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/17932>
8. Madaminova D. B. Bir hikoya tahlili (Isajon Sultonning "Yog'och kavush" hikoyasi) // Educational Research in

